



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 16 - sentabr

VI-65-187-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

Angor tumani Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi tomonidan Sanitar-epidemiologik holat, chiqindilarni o‘z vaqtida olinishi va 2023-yil II chorak davomida olib borilgan ishlarning hisoboti to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan hamda Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi boshlig‘i M.Xudoyberdiyevaning 2023-yilning II choragi davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi hisobotini xalq deputatlari tuman Kengashining Ta‘lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi majlisida eshutilganligi va ko‘rib chiqilganligini hamda kun tartibidagi masala yuzasidan bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi boshlig‘i M.Xudoyberdiyevaning Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi tomonidan 2023-yilning II choragi davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Angor tumani Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi (M.Xudoyberdiyeva), tegishli idora va tashkilotlar rahbarlariga:

- O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati to‘g‘risidagi Nizomda belgilangan funksional vazifalarni vijdonan bajarish va mas’uliyatni oshirish;

- hududda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, barcha ijtimoiy guruhlarni qamrab olgan holda fuqarolarni sanitariya-gigienik o‘qitish va tarbiyalashni tashkil etishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali aholining sanitariya madaniyati darajasini yanada oshirish;

- jamoat salomatligi va kasalliklar profilaktikasi, sanitariya, gigiena, epidemiologiya, parazitologiya, mikrobiologiya, virusologiyaning dolzarb masalalari bo'yicha istiqbolli yo'nalishlarni belgilash hamda fundamental va amaliy-ilmiy tadqiqotlar olib borilishini muvofiqlashtirish;

- inson salomatligi va atmosfera havosiga zararli fizik omillar orqali ta'sir ko'rsatuvchi obyektlarning ro'yxatini va hisobini olib borish hamda nazorat qilish;

- oziq-ovqat xomashyosi va mahsulotlar ishlab chiqarish, tashish, saqlash va realizatsiya qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi, shu jumladan, umumiy ovqatlanish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlarida tekshiruvlar o'tkazish;

- Angor tumanida yuqumli kasalliklar tarqalishini oldini olish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni davom ettirish, ijtimoiy-maishiy sohalarda sanitariya qoidalariga rioya qilinishi yuzasidan qat'iy nazorat o'rnatish;

- tuman aholisini sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini saqlash, aholi orasida yuqumli kasalliklarning tarqalishini oldini olish, ovqatdan zaharlanishga yo'l qo'ymaslik, bolalar muassasalari, ishlab chiqarish korxonalarida sanitariya qonunchiligining bajarilishini nazorat qilib borish;

- tadbirkorlarga sanitariya qonun-qoidalari doirasida mahorat darslarini o'tish, ularni sanitariya qoidalari va me'yorlariga rioya qilishlarini ta'minlash borasida uchrashuvlar tashkil etib borish;

- aholi o'rtasida yuqumli kasalliklar va ovqatdan zaharlanishni oldini olish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va sanitariya-gigiena qoidalariga rioya qilinishi bo'yicha "mahallabay" va "xonadonbay" sanitariya targ'ibot ishlarini tashkil qilish;

- amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har chorak yakuni bo'yicha Xalq deputatlari Angor tumani Kengashiga yozma ravishda ma'lumot berilsin.

3. Angor tumani hokimi o'rinbosari (B.Xakimov), Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi (M.Xudoyberdiyeva), Angor tumani tibbiyot birlashmasi (Sh.Odinayev), tegishli idora va tashkilotlar rahbarlariga:

- aholiga malakali birlamchi, birinchi navbatda kasalliklarni profilaktika qilish masalalarida tibbiy-sanitariya yordamini ko'rsatish, o'smir qizlar, homilador ayollar, bolalar, shuningdek, yolg'iz keksalar, nogironlar, surunkali kasalliklarga chalingan bemorlar hamda o'zgalar ko'magiga va ijtimoiy yordamga muhtoj shaxslar o'rtasida doimiy hamkorlikda patronaj ishlarini amalga oshirish;

- tarmoqning joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini hisobga olgan holda kadrlarni o'qitish, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning ilg'or usullarini tizimli asosda joriy etish;

- iste'molchilarni ichimlik suvi bilan ta'minlaydigan, oqova suvlarni chiqarib tashlaydigan xo'jalik yurituvchi subyektlarda tekshiruvlar o'tkazish;

- inson hayoti va salomatligi uchun jiddiy xavf tug'diruvchi yuqumli kasalliklar tarqalishi yoxud texnogen yoki tabiiy xususiyatga ega halokat sodir bo'lishi real xavfi vujudga kelganda mulkchilik shaklidan qat'iy nazar obyektlarda tekshirishlar o'tkazish;

- turli soha xodimlarini sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlari bo'yicha to'lov-kontrakt asosida malakasini oshirish;

- inson salomatligiga ta'sir etuvchi xavfli omillarni boshqarish, tizimli monitoringni olib borish va tahlil qilishning yangi shakl va usullarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish;

- sanitariya-epidemiologik holatni baholash natijalari bo'yicha aholining sanitariya-epidemiologiya sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni muntazam ravishda buzayotgan yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan ma'muriy javobgarlik yuklatish hamda taqdimnomalar kiritish bo'yicha ta'sir choralari qo'llash;

- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qilingan murojaatlarga qonunda belgilangan tartibda hamda o'z muddatida javob berish;

- qonun hujjatlariga ko'ra xodimlari tibbiy ko'rikdan o'tishi lozim bo'lgan barcha tashkilotlar, korxonalar, savdo va aholiga xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadigan tadbirkorlik subyektlari xodimlarining tibbiy ko'rikdan o'tkazilishining to'liqligini nazorat qilish vazifalari yuklatilsin.

4. Tuman hokimligi Axborot xizmati va "Angor yog'dusi" gazetasi (G.Jumayeva)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida tahliliy hamda tanqidiy ruhda keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Yuqoridagi belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan har chorak yakuni bilan tegishli mansabdor shaxslar tomonidan xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot kiritib borilsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (M.Qodirova) zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



Q.Mardonov